

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 123 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



BANKLARNING AKTIVLARINI DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Elbusinova Umida Khamidullaevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bank ishi kafedrasining dotsenti

E-mail: umidakhashimova777@gmail.com

ORCID: 0009-0001-1976-4540

Annotatsiya: Tijorat banklari aktivlarining daromadliligini ta'minlash — ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Aktivlar daromadliligining barqaror darajasini ta'minlash, o'z navbatida, sof foydaning barqaror darajasini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining daromadliligini ta'minlash bilan bog'liq dolzarb muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, aktiv, daromadlilik, sof foyda, risk, kredit, investitsiya, zaxira, foiz stavkasi, marja.

Abstract: Ensuring the profitability of commercial banks' assets is one of the prerequisites for ensuring their financial stability. Ensuring a stable level of return on assets will play an important role in ensuring a stable level of net income.

The article identifies urgent problems related to ensuring the profitability of assets of commercial banks of the Republic of Uzbekistan and developed scientific proposals aimed at solving these problems.

Key words: commercial bank, asset, profitability, net profit, risk, loan, investment, reserve, interest rate, margin.

Аннотация: Обеспечение доходности активов коммерческих банков является одним из обязательных условий обеспечения их финансовой устойчивости. Обеспечение стабильного уровня доходности активов сыграет важную роль в обеспечении стабильного уровня чистой прибыли.

В статье выявлены актуальные проблемы, связанных с обеспечением доходности активов коммерческих банков Республики Узбекистан и разработаны научные предложения, направленных на решение этих проблем.

Ключевые слова: коммерческий банк, актив, доходность, чистая прибыль, риск, кредит, инвестиция, резерв, процентная ставка, маржа.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son'li Farmoni bilan tasdiqlangan 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash, tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar hajmining barqaror o'sishini ta'minlash, banklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb etish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni joriy etish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan [1].

Mazkur yo'nalishlar doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, eng avvalo, tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish imkonini beradi. Biroq hozirgi davrda respublikamiz tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish bilan bog'liq bir qator dolzarb muammolar mavjud.

Xususan, tijorat banklari kreditlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik miqdori yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlarga kiritilayotgan investitsiyalar O'zbekiston tijorat banklari aktivlari hajmida juda kichik ulushni egallamoqda.

MAVUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J. Sinkining fikriga ko'ra, tijorat banklari aktivlarining daromadliligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri — bu sof foizli marja ko'rsatkichidir. Sof foizli marja bank aktivlari miqdoriga teskari proporsional bo'lib, kreditlar va depozitlar bozorida yuqori darajadagi raqobat uning darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi [2].

1 <https://lex.uz/docs/-4811025>



D. Maknotonning xulosasiga ko'ra, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda foizli daromadlar muhim o'rin egallaydi. Ularning fikricha, tijorat banklarining yalpi daromadida foizli daromadlar ulushi kamida 70 foizni tashkil etishi lozim [3].

I. Leçukovanning fikriga ko'ra, tijorat banklarining foydasini barqaror darajada ta'minlash uchun bank faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiya ishlab chiqilishi zarur. Bunday strategiya bank resurslaridan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan aniq maqsadlar va harakatlar majmuasini o'z ichiga olishi kerak [4].

O. Voloshinaning fikricha, tijorat banklari foizli daromadlarining darajasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- foizli daromadlarning ssuda hisobvaraqlari o'rtacha qoldig'iga nisbati;
- qisqa muddatli ssudalardan olingan daromadlarning ularning o'rtacha qoldig'iga nisbati;
- alohida kredit guruhlari bo'yicha olingan daromadlarning ushbu guruhga tegishli kreditlarning o'rtacha summasiga nisbati;
- uzoq muddatli ssudalardan olingan foizli daromadlarning ularning o'rtacha qoldig'iga nisbati [5].


S. Kumokning xulosasiga ko'ra, hozirgi davrda tijorat banklari kapitalga to'g'ri keladigan foyda me'yorini faqat kapital yetarilgini pasaytirish orqali oshira olmaydi. Chunki banklararo raqobatning kuchaygani va kredit resurslarining qimmatlashgani kapitalning aktivlarga nisbatan optimal darajasini saqlashga to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun kapitalga to'g'ri keladigan foyda me'yorini oshirishning asosiy manbai — bu aktivlar qaytimining darajasini oshirishdir [6].

B. Berdiyarov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarning mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, banklar aktivlari va kapitali rentabelligi ko'rsatkichlarining nisbatan pastligi hamda tijorat banklari tomonidan sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti bo'yicha belgilangan talablarning to'liq bajarilmayotgani ushbu salbiy omillar sirasiga kiradi [7].

J. Isakov tomonidan olib borilgan ekonometrik tahlillar natijasida aniqlanishicha, tijorat banklari tomonidan xizmatlar sohasiga ajratilayotgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 1 foizga oshsa, bu kreditlar daromadlilikini 0,8 foizga oshiradi. Shu bilan birga, berilayotgan kreditlar hajmining 1 foizga oshishi esa, aksincha, kreditlar daromadlilik darajasining 1,8 foizga kamayishiga olib keladi [8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari aktivlarining daromadlilikini tavsiflovchi bir qator ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ular orasida sof foizli marja hamda 1 so'mlik aktivga to'g'ri keladigan daromad darajasi ko'rsatkichlari bank aktivlarini moliyaviy tahlil qilishda keng qo'llaniladi (1-rasm).



1-rasm. Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida sof foizli marja va bir so'mlik aktivga to'g'ri keladigan daromad darajasi, foizda [9]


1-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, TIF Milliy bankida 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sof foizli marja hamda bir so'mlik aktivga to'g'ri keladigan daromad darajasi ko'rsatkichlari oshgan. Bu holat bank aktivlarining rentabelligini oshirish nuqtayi nazaridan ijobiy deb baholanadi.



Biroq tahlil qilingan davr mobaynida sof foizli marja ko'rsatkichi me'yoriy daraja — 4,5 foizdan ancha past bo'lgani sababli, bu holat bank aktivlarining rentabelligini oshirish nuqtayi nazaridan salbiy omil sifatida qaraladi.

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, TIF Milliy bankida bir so'mlik aktivga to'g'ri keladigan daromad darajasi 2017–2021-yillar oralig'ida o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Bu ham bank aktivlarining rentabelligi oshayotganidan dalolat beradi va ijobiy holat sifatida e'tirof etiladi.

Tijorat banklari aktivlarining tarkibida kreditlar yuqori ulushni egallagani sababli, aynan kreditlar daromadliligi banklarning moliyaviy barqarorligiga bevosita kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, kreditlarning daromadliligi esa kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasiga bog'liq bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. TIF Milliy bankida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, foizda [10]

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2017–2021-yillar davomida TIF Milliy bankida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bundan tashqari, mazkur ko'rsatkichning amaldagi darajasi belgilangan me'yoriy darajadan yuqori bo'lgan.

Respublikamiz bank amaliyotida tijorat banklarining kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari summasi to'liq bankning xarajatlari hisobiga yoziladi. Shu sababli, zaxira ajratmalari hajmining oshishi tijorat bankining sof foydasi miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat bankining likvidliligi va to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki sof foyda — tijorat banklari faoliyatining barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklari aktivlarining daromadlilik darajasi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bu aktivlarning riskka tortilgan summasining o'zgarishidir. Chunki aktivlarning daromadliligi bilan risk darajalari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri mutanosiblik mavjud: aktivning risk darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning daromadlilik darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shu bois, tijorat banklarida riskka tortilgan aktivlar summasi bilan sof foyda o'rtasida ham bevosita bog'liqlik mavjud (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) Milliy bankida sof foyda, aktivlarning riskka tortilgan summasi va sof foydaning darajasi [11]

Ko'rsatkichlar	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.
Sof foyda, mlrd. so'm	157	354	506	1 043	905
Aktivlarni riskka tortilgan summasi, mlrd. so'm	10 936	28 397	33 650	41 658	53 820
Sof foydani aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi, %	1,4	1,2	1,5	2,5	1,7

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, TIF Milliy banki sof foydasi miqdori 2016–2019-yillar oralig'ida o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq 2020-yilda bankning sof foydasi miqdori 2019-yilga nisbatan kamaygan.



Shuningdek, 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, TIF Milliy banki aktivlarining riskka tortilgan summasi 2016–2020-yillar davomida barqaror o'sib borgan.

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, TIF Milliy banki sof foydasi darajasi faqat 2019-yilda me'yoriy talab darajasiga — ya'ni 2,0 foizdan yuqori ko'rsatkichga erishgan. Tahlil qilingan qolgan yillarda esa ushbu ko'rsatkich me'yoriy darajadan past bo'lgan. Bu esa Milliy bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy holat sifatida qaraladi.

E'tirof etish joizki, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi tijorat banklari aktivlarining daromadlilikiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan aniq vazifalar va tadbirlar belgilangani tijorat banklari uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan ushbu strategiyada muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlariga erishishning zaruriy sharti sifatida ko'rsatilgan. Jumladan, 2023-yilgacha inflyatsiya darajasini bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish, 2023-yildan boshlab davlat budjeti taqchilligini YalMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik, shuningdek, har yili jalb qilinadigan tashqi qarz miqdorini 4,5 mlrd AQSh dollaridan ortiq bo'lmasligini ta'minlash vazifalari belgilangan [12].

Biroq hozirgi davrda mamlakatda inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lib qolayotgani, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini yuqori darajada ushlab turishiga olib kelmoqda. Natijada, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning foiz stavkalari ham yuqori darajada saqlanmoqda.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Ilmiy maqolani yozish jarayonida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklari kredit portfeli va risklarini boshqarishni takomillashtirish, banklarda korporativ boshqaruvni kuchaytirish hamda bank xizmatlarini modernizatsiya qilish kabi vazifalarning belgilangani tijorat banklari aktivlarining daromadlilikiga oid dolzarb muammolarni chuqur o'rganish va ularni hal etishning ilmiy asoslangan yo'llarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

TIF Milliy bankida 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sof foizli marja va bir so'mlik aktivga to'g'ri keladigan daromad darajasi ko'rsatkichlarining oshgani bank aktivlarining daromadlilikini oshirish nuqtayi nazaridan ijobiy holatdir. Biroq tahlil qilingan davrda sof foizli marja ko'rsatkichining belgilangan me'yoriy darajadan (4,5 %) ancha past bo'lgani salbiy holat hisoblanadi.

TIF Milliy bankida bir so'mlik aktivga to'g'ri keladigan daromad darajasi 2017–2021-yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu holat ham bank aktivlari daromadlilikining oshganidan dalolat beradi.

2017–2021-yillarda TIF Milliy bankida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi o'sib borgan. Amaldagi ko'rsatkich belgilangan me'yoriy darajadan yuqori bo'lgan, bu esa bank aktivlari daromadlilikini oshirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

TIF Milliy bankining sof foydasi 2016–2019-yillar davomida oshgan, ammo 2020-yilda 2019-yilga nisbatan kamaygan. Bankda sof foyda faqat 2019-yilda me'yoriy talab — 2,0 foizdan yuqori bo'lgan, qolgan yillarda esa past darajada bo'lgan. Bu holat bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy baholanadi.

TIF Milliy banki aktivlarining riskka tortilgan summasi 2016–2020-yillar davomida o'sish tendensiyasini namoyon qilgan.

Tavsiya etiladigan chora-tadbirlar

1. Tijorat banklarida sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish uchun quyidagilar amalga oshirilishi lozim:

- Foizli daromadlarning yalpi daromaddagi salmog'ini yuqori va barqaror darajada ushlab turish;
- Sof foizli marjaga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlarning (sof foizli spread, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi, xarajatlar/daromadlar koeffitsienti, foizli daromadlar va foizli xarajatlar o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblik) belgilangan me'yoriy darajaga mos kelishini ta'minlash.

2. Tijorat banklari yalpi daromadining brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- Foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan barqaror nisbatini shakllantirish;
- Xarajatlar/daromadlar koeffitsientini belgilangan me'yoriy daraja — 0,45 atrofida saqlash;
- Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar orqali foizli daromadlar hajmini va ulushini oshirish.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hozirgi paytda respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga kiritgan investitsiyalarining brutto aktivlar hajmidagi ulushi juda past. Natijada, qimmatli qog'ozlardan olingan foizli daromadlar umumiy foizli daromadlarda kam ulushga ega.



2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining brutto aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar salmog'i atigi 4,4 foizni tashkil etgan [13].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли “Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси”ги фармони//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон.
2. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблшер, 2017. – С.338.
3. Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994. – С.71.
4. Лещукова И. В. Прибыль коммерческого банка и ее источники//Инновационная наука. – Москва, 2017. - № 5. - С. 114 – 116.
5. Волошина О.Б. Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения//Известия высших учебных заведений. - Поволжский регион, 2014. - 1. – С. 168-172.
6. Кумок С.И. Анализ деятельности коммерческих банков. – М. : Вече, 1996. – С. 53.
7. Бердияров Б.Т. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг ликвидлиги ва тўлов қобилиятини таъминлаш масалалари. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 29.
8. Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кредит самарадорлигини ошириш. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – Б. 28.
9. ТИФ Миллий банки. Тижорат банкининг баланс ҳисоботи; Фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисобот. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021. www.nbu.uz.
10. ТИФ Миллий банки. Тижорат банкининг баланс ҳисоботи; Активларни риск даражасига кўра таснифи. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021. www.nbu.uz.
11. ТИФ Миллий банки. Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот. Рискка тортилган активлар ҳисоб-китоби. 2017, 2018, 2019, 2020. www.nbu.uz.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида//QMMB:06/22/60/0082-сон.29.01.2022.
13. Тижорат банкларининг жамланма баланси. www.cbu.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
